

**ANDIJON DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI
PhD.03/29.12.2022.Fil.156.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

ANDIJON DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI

NAZAROVA NARGIZ MARDONOVNA

**OLAMNING LISONIY MANZARASIDA “YAXSHILIK” VA
“YOMONLIK” KONSEPTI MASALASI**

10.00.11 – Til nazariyasi. Amaliy va kompyuter lingvistikasi

**FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

UO‘K: 811.512.133’1:
008+811.112.2’1:008

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
филологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of Doctor of Philosophy (PhD) in
Philological Sciences**

Nazarova Nargiz Mardonovna

Olamning lisoniy manzarasida “Yaxshilik” va “Yomonlik” konsepti masalasi 3

Назарова Наргиз Мардоновна

Проблема концептов “добро” и “зло” в языковой картине мира..... 25

Nazarova Nargiz Mardonovna

The problem of the concepts of “Good” and “Evil” in the linguistic picture of the world..... 49

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works 54

**ANDIJON DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI
PhD.03/29.12.2022.Fil.156.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

ANDIJON DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI

NAZAROVA NARGIZ MARDONOVNA

**OLAMNING LISONIY MANZARASIDA “YAXSHILIK” VA
“YOMONLIK” KONSEPTI MASALASI**

10.00.11 – Til nazariyasi. Amaliy va kompyuter lingvistikasi

**FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.3.PhD/Fil3971 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Andijon davlat chet tillari institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz, (rezyume)) Andijon davlat chet tillari instituti veb-sahifasi (www.adchti.uz) va "ZiyoNet" axborot-ta'lim portalining (www.ziynet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Shaxabitdinova Shoxida Xoshimovna
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Mirzoxidova Muyassar Inomjonovna
filologiya fanlari doktori, professor

Yusufaliyev Elyorjon Mashrabovich
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Yetakchi tashkilot:

Farg'ona davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Andijon davlat chet tillari instituti huzuridagi ilmiy daraja beruvchi PhD.03/29.12.2022.Fil.156.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "12" may soat 14⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 170100, Andijon shahar, Bobur shohko'chasi, 5-uy. Tel: (74)223-42-76; faks: (74)223-42-76; e-mail: asifl@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Andijon davlat chet tillari institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (EE-A raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 170100, Andijon shahar, Bobur shohko'chasi, 5-uy. Tel:(74)223-42-76).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "5" may kuni tarqatildi.
(2025-yil "___" _____ dagi № _____ raqamli reyestr bayonnomasi).


D.A. Buzumtuy
Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash raisi,
filologiya fanlari doktori, professor
A.Dj. Ataboyev
Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash
ilmiy kotibi, filologiya fanlari bo'yicha
falsafa doktori, dotsent
L.R. Raupova
Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi
filologiya fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda kognitiv tilshunoslik faol rivojlanayotgan lingvistik yo‘nalishlardan biridir. Bu soha ancha yangi bo‘lib, tilni amaliy tahlil qilish orqali kognitiv fanning nazariy va uslubiy tamoyillarini o‘rganishga qaratilgan. Muayyan kontseptlarning kognitiv tadrijini kuzatish umuman inson bilish jarayonining mohiyatini anglab yetish bilan bog‘lanadi. Bu esa tilshunoslikning fanlar tizimidagi o‘rnini belgilashda alohida ahamiyat kasb etadi.

Dunyo tilshunosligida, ya’ni global lingvistik hamjamiyatda kognitiv tilshunoslik jadal rivojlanmoqda, bu esa ushbu sohada qo‘llaniladigan yondashuvlar, terminologiya va usullardagi farqlarga olib keladi. Ko‘p tadqiqotlarda olimlar kognitiv tilshunoslikning zamonaviy tendensiyalarini tasniflashga harakat qilishdi. So‘nggi o‘n yilliklarda zamonaviy tilshunoslikda “konsept” atamasi, garchi uning ta’rifi hali ham aniq bo‘lmasa-da, keng tarqaldi. Bu, asosan, mazkur tushunchaning turli yondashuvlar nuqtai nazaridan ko‘rib chiqilishi bilan bog‘liq. Xususan, lingvokulturologik yondashuvga ko‘ra konseptni tushunish uning asosiy madaniy birlik sifatida aniqlanishiga ta’sir qiladi va madaniy anglashni o‘z ichiga oladi.

O‘zbek tilida nutqning lingvistik jihatlarini pragmatik, kognitiv, lingvokulturologik va sotsiolingvistik nuqtai nazardan o‘rganish nihoyatda muhimdir. Bu esa konsept tushunchasi bilan bog‘liq bir qator masalalarni ko‘rib chiqishni taqozo qiladi. Chunki konseptni o‘rganish zarurati etnosning rivojlanishi bilan insoniyat o‘shishda davom etmoqda va ularning hajmi, tuzilishi, chegaralari, ma’no yo‘nalishi doimiy ravishda o‘zgarib turadi. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek, “...ilmiy tadqiqot va innovatsion faoliyatni rivojlantirish, ijodiy g‘oya va ishlanmalarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash vazifasi”¹ davr ruhiga mos tadqiqot olib borish hamda turli amaliy tajriba o‘tkazishni talab qiladi. Shu nuqtai nazardan olamning lisoniy manzarasida “yaxshilik” va “yomonlik” konsepti masalasini lingvokulturologik va pragmatik tadqiq etish dolzarblilik kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 13-maydagi “Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to‘g‘risida”gi PF-4997-son, 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son, 2019-yil 21-oktyabrdagi “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5850-son, 2020-yil 20-oktyabrdagi “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivolantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6084-son Farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-fevraldagi PF-2789-son “Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2019-yil 4-oktyabrdagi PQ-4479-son “O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi Qonuni qabul qilinganligining o‘ttiz yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”gi qarorlari, 2020-yil 24-yanvardagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi hamda boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot muayyan darajada xizmat qiladi.

¹ [www.http://prezident.uz](http://prezident.uz) Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси.

Dissertatsiyaning O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar taraqqiyoti ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajariladi.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Kognitiv tilshunoslikda “konsept” atamasi S.A.Askoldov², A.Vejbitskaya³, R.Langakker⁴, Y.S.Stepanov⁵, R.M.Frumkina⁶, Z.D.Popova⁷, I.A.Sternin⁸, V.A.Maslova⁹, K.Z.Zulpukarov¹⁰, Z.K.Derbishova¹¹ kabi olimlar tomonidan uzoq vaqt davomida qo‘llanilgan. Tilshunoslikning predmet sohasini kengaytirish orqali konsepsiya 80-yillarda to‘laonli atamaga aylandi.

“Tushuncha” va “konsept” terminlari V.N.Teliya, V.V.Kolesov, Y.S.Kubryakova, V.I.Karasik, S.G.Vorkachev¹² kabi rus olimlari ishlarida ham ta’riflangan.

Shuningdek, R.Langakker¹³, Dj.Lakoff va M.Djonson¹⁴ konseptni mental reprezentativlik sifatida tushunishgan.

Y.S.Stepanovning fikricha, “konsept – bu bizning ongimizda uzoq vaqtdan beri tarkib topgan tushuncha, bu madaniyat holatining tavsifi”¹⁵.

Lingvokognitiv yondashuv vakillari (E.S.Kubryakova¹⁶, N.N.Boldirev¹⁷, Z.D.Popova, I.A.Sternin¹⁸ va b.) konseptni dunyoning konseptual manzarasining birligi sifatida ko‘rib chiqadilar. “Краткий словарь когнитивных терминов” (“Kognitiv atamalarning qisqacha lug‘ati”) da konsept – bu “bizning ongimizning mental (aqliy) yoki psixik resurslari birliklarini va inson bilim va tajribani aks ettiruvchi axborot tuzilishini tushuntirishga xizmat qiladigan atama...”¹⁹ sifatida ta’riflanadi.

² Аскольдов С.А. Концепт и слово // Русская словесность. От теории словесности к структуре текста. Антология. – Москва, 1997. – С. 260-267.

³ Вежбицкая А. Язык. Культура. Познание. – Москва, 1996. – 416 с.

⁴ Лангаккер Р.У. Когнитивная грамматика – Москва, 1992. – 88 с.

⁵ Степанов Ю.С. Концепт // Степанов Ю.С. Константы: Словарь русской культуры. Опыт исследования. – Москва: Школа “Языки русской культуры”, 1997. – 824 с. – С.40-46.

⁶ Фрумкина Р.М. Концептуальный анализ с точки зрения лингвиста и психолога // Научно-техническая информация. – 1992. Сер. 2. №3. С. 3-9.

⁷ Попова З.Д., Стернин И.А. Понятие «концепт» в лингвистических исследованиях. – Воронеж, 1999. – 211 с.

⁸ Попова З.Д., Стернин И.А. Когнитивная лингвистика. Золотая серия. – Москва: АСТ: Восток-Запад, 2010. – 314 с. – С. 87.

⁹ Маслов Ю.С. Избранные труды. Аспектология. Общее языкознание. – Москва: Языки славянской культуры, 2004. – 848 с.

¹⁰ Зулпукаров К.З. Падежная грамматика: теория и прагматика. – Санкт-Петербург, 1994. – 317 с.

¹¹ Дербишова З.К. Ключевые концепты кыргызской лингвокультуры. – Бишкек, 2012. – 176 с.

¹² Телия В.Н. Коннотативный аспект семантики номинативных единиц. – Москва: Наука, 1986. – С.82-83.; Кубрякова Е.С., Демьянков В.З., и др. Краткий словарь когнитивных терминов. – Москва, 1996.

¹³ Лангаккер Р.В. Модель, основанная на языковом употреблении // Вестник Московского университета. Сер. 9: Филология. 1997. N4: с. 159-174; N 6: – С.101–123. (Langacker R. Concept, Image, and Symbol: The Cognitive Basis of Grammar. – Berlin-N.Y., 1991.)

¹⁴ Lakoff G., Johnson M. Metaphors We Live By. University of Chicago Press, 1980; London, 2003. Рус. пер.: Лакофф Дж., Джонсон М. Метафоры, которыми мы живем. – Москва, 2004.

¹⁵ Степанов Ю.С. Концепты. Тонкая пленка цивилизации. – Москва: Языки славянских культур, 2007. – 248 с. – С.19.

¹⁶ Кубрякова Е.С. Краткий словарь когнитивных терминов. – Москва: Филол. ф-т МГУ им. М.В.Ломоносова, 1997. – 245 с.

¹⁷ Болдырев Н.Н. Когнитивная семантика: курс лекций по английской филологии. – Тамбов: Изд-во ТГУ им. Г. Р. Державина, 2002. – 123 с.

¹⁸ Попова З.Д., Стернин И.А. Очерки по когнитивной лингвистике. – Воронеж: Истоки, 2001. – 191 с.

¹⁹ Кубрякова Е. С. Краткий словарь когнитивных терминов. – Москва: Филол. ф-т МГУ им. М.В. Ломоносова, 1997. – 245 с.

Dunyo tilshunosligida “yaxshilik” va “yomonlik” konseptining kategorial, rus va chechen millati materiallari asosida dunyoning lisoniy manzarasidagi o‘rni, assotsiativ xususiyatlari, folklordagi ahamiyati, lingvokulturologik jihati, ijodkorlar asaridagi mazkur konseptlar o‘rni kabi masalalari T.V.Pechagina²⁰, A.R.Dadayeva, L.M.Baxayeva²¹, S.N.Sokurova, Y.A.Bogdanova²², Li Isin²³, Van Tyantszyao²⁴, Z.A.Seyeva²⁵, D.Ganbaatar²⁶, N.Y.Mospanova²⁷ kabi bir qator tadqiqotchilar ishida atroflicha tahlil qilingan.

O‘zbek tilshunosligida konsept borasidagi tadqiqotlar A.A.Abduazizov, D.U.Ashurova, Sh.S.Safarov, N.Nurmonov, N.Mahmudov, M.R.Galiyeva, A.E.Mamatov, M.N.Xolbekov, M.I.Rasulova, O‘.Q.Yusupov, A.A.Qambarov, S.R.Akbarova, Q.N.Nazarov, M.M.Rahmatova, N.R.Umarova, D.Baxronova²⁸ izlanishlarida muayyan darjada o‘z aksini topgan. Ammo olamning lisoniy manzarasida “yaxshilik” va “yomonlik” konsepti masalasi monografik planda hal qilinmagan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim va ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi. Ushbu tadqiqot Andijon davlat chet tillari institutining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalariga muvofiq “Zamonaviy tilshunoslikning nazariy hamda amaliy muammo va yechimlari” mavzusidagi ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi olamning lisoniy manzarasida “yaxshilik” va “yomonlik” konseptining lingvokulturologik, pragmatik xususiyatlari va amaliy ahamiyatini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

lingvistik konsept bo‘yicha mahalliy, xorijiy tilshunoslikda yaratilgan tadqiqotlar o‘rganish, umumlashtirish hamda uning milliy-madaniy xususiyatlarini misollar asosida izohlash;

²⁰ Печagina Т.В. «Добро/зло» как категориальные концепты // Вестник Челябинского государственного университета. 2011. № 11 (226). Филология. Искусствоведение. Вып. 53. – С. 99-101.; Категориальные концепты «добро/зло» в детской фэнтези: Автореф. дисс....канд. филол. наук. – Челябинск, 2011. – 21 с.

²¹ Дадаева А.Р., Бахаева Л.М. Концепт «добро/зло» в языковой картине русского и чеченского народов (на материале толковых словарей) // Вестник Калмыцкого университета. №4 (56) – 2022. – С.72-76.

²² Сокурова С.Н., Богданова Е.А. Ассоциативные свойства лингвоконцептов «добро/зло» в русском и французском языках: данные свободного ассоциативного эксперимента. Известия Волгоградского государственного педагогического университета. – 2014. – С.56-61.

²³ Ли Исинь Концепты «добро/зло» в русском языковом сознании (на материале русских народных сказок и сказок А.С.Пушкина // Филологические науки. Вопросы теории и практики – Тамбов: Грамота, 2017. № 2(68): в 2-х ч. Ч. 2. – С. 146-151.

²⁴ Ван Тяньцзяо. Модели концептуальных метафор в языковом воплощении этических концептов «добро/зло» в русской фразеологии и паремииологии: Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – Нижний Новгород, 2021. – 26 с.

²⁵ Цеева З.А. концепты «добро/зло» как проблема лингвокультурологии // Известия Кабардино-Балкарского научного центра РАН № 1 (45). – 2012.

²⁶ Ганбаатар Д. Концепты «добро/зло» в произведениях И.С.Тургенева на фоне монгольского языкового сознания: Автореф. дис. ...канд. филол. наук. – Москва, 2008. – 20 с.

²⁷ Моспанова Н.Ю. Концептуальная оппозиция «добро/зло» в фольклорной языковой картине мира (на материале русских народных сказок): Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – Брянск, 2005. – 24 с.

²⁸ Маматов А.Э. Тилга когнитив ёндашувнинг мохияти нимада? // Тилшуносликнинг долзарб масалалари: Проф. А.Нурмонов таваллудининг 70 йиллигига бағишлаб ўтказилган илмий - амалий анжуман материаллари. – Андижон, 2012. – Б.212-219.; Умарова Н. Алишер Навоий асарларининг лисоний-концептуал тадқиқи: Филол. фан. д-ри...дисс. – Фарғона, 2021. – 269 б.; Бахронова Д. Оламнинг лисоний манзараси тасвирида концепт ва концептосфера // Хорижий филология №3, 2019. – Б. 62-68.

“yaxshilik” va “yomonlik” falsafiy tushunchalarining leksikografik tavsifini aniqlash;

“yaxshi” va “yomon” tushunchalarining kesishish maydonini tahlillar asosida izohlash;

“yaxshilik – yomonlik” konseptual oppozitsiyasining yadrosi va yadro zonasini aniqlash;

“yaxshilik” va “yomonlik” konseptining o‘zbek va nemis tillaridagi lingvokulturologik va pragmatik tahlilini amalga oshirish.

Tadqiqotning obyekti sifatida turli lingvomadaniyatga oid “yaxshilik” va “yomonlik” konseptini ifodalovchi lisoniy birliklar tanlangan.

Tadqiqotning predmetini “yaxshilik” va “yomonlik” konseptul maydonini tashkil qiluvchi turli lingvomadaniyatga oid lisoniy birliklarning lingvokulturologik va pragmatik jihatlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda tasniflash, qiyoslash, komponent, kognitiv, kontekstual, leksikografik, lingvomadaniy, pragmatik va sotsiolingvistik tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

“yaxshilik” va “yomonlik” falsafiy tushunchalarining leksikografik tavsifi – tarixiy kontekst, etimologiya, sinonim, antonim kabilar– aniqlanishi orqali “yaxshi” va “yomon” tushunchalarining kesishish maydoni ilmiy-kognitiv tavsiflanib, konseptual qarama-qarshilik semantikasi asosida “yaxshilik – yomonlik” konseptual oppozitsiyasining yadrosi va yadro zonasini aks ettirishi asoslangan;

“yaxshilik” va “yomonlik”ning konseptual qarama-qarshiligida “yaxshilik”ning o‘zagi axloq, rahm-shafqat, sevgi va adolat kabi, “yomonlik”ning yadrosi shafqatsizlik, xudbinlik va zo‘ravonlik kabi jihatlari bilan bog‘liqligi, yadro doirasida leksik darajalanish birliklarini uning sinonimlari tashkil etishi aniqlangan;

“yaxshilik” va “yomonlik” konsepti millat madaniyati, dunyoqarashi, e’tiqodi kabi omillar asosida shakllanishi, qo‘llanishi va ahamiyati lingvokulturologik yondashuv orqali aniqlanib, shaxs omili, nutqiy vaziyat, nutq sharoiti, nutq payti hamda nutq o‘rni kabi pragmatik omillar asosida kontekstual tahlil etilib, “yaxshilik” va “yomonlik” tushunchalari ushbu etnik guruhlarining axloqiy dunyoqarashiga ta’sir etuvchi madaniy istiqbol, e’tiqod tizimlari va qadriyatlardan iborat ekanligi, tajriba, vaziyat kontekstlari, hissiy holat, vaqt va ijtimoiy rollar tahlili fazilat va illatning o‘zgaruvchan ta’riflari real hayotda qanday kontekstlashtirilganligi aniqlangan;

“yaxshilik” va “yomonlik” konseptlarining turli millat vakillari ongida namoyon bo‘lish usullari o‘rtasidagi semantik munosabatlarning markaziy va muhim o‘lchovlari – nemis tilida yaxshilik konsepti “das Gut”, o‘zbek tilida esa “yaxshilik” otlari bilan ifodalanishi, ikkala tilda ham ushbu konseptning “yaxshi, ijobiy, yaxshilikka qaratilgan” kabi ma’nolari o‘xshash, nemis tilida o‘ziga xoslik “das Gut” asosiy leksemasida “mulk”, “tovar, yuk”, “material, mahsulot”, “rudali tosh” va “asbobsozlik” kabi semalarning mavjudligida ekanligi ochib berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

filologiya fakultetlarining talabalari va magistrantlariga matn lingvistikasi, kognitiv lingvistika, kommunikativ lingvistika bo‘yicha ma’ruzalar va maxsus kurslar o‘qitishda foydalanilgan;

mazkur tadqiqotda konseptlarning zanjirli bog‘lanish hosil qilishi tamoyillari metodikasi ishlab chiqilgan;

turli tizimdagi tillarda konseptlarning zanjirli bog‘lanishlarni tashkil etuvchi birliklarning semantik ma’nolariga ko‘ra, axborotni adresatga yetkazishda aniqlashtiruvchi omillar tizimi aniqlangan;

tadqiqotning amaliy natijalari nazariy tilshunoslik bo‘yicha o‘quv-uslubiy qo‘llanmalar tayyorlashda asos bo‘lib xizmat qilishi nazarda tutilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tahlil qilingan materiallar bilan tasdiqlangan bo‘lib, ular konseptlarni leksikografik tavsiflashning nazariy va amaliy asoslari to‘g‘risida xulosalar chiqarishga, ularning haqiqiylikini, uslubiy asoslilikini va yempirik tasdiqlangan manbalarga tayanishini ta‘minlashga imkon beradi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Ushbu ishning ilmiy ahamiyati shundaki, umumlashtirilgan ilmiy-nazariy xulosa va tavsiyalar, ilmiy tahlil, nazariy qarash va usullar konsept hamda konseptosfera bo‘yicha keyingi tadqiqotlar uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Ishning amaliy ahamiyati uning materiallaridan maxsus kurslarni ishlab chiqishda, tashkil etishda, dissertatsiyalar, monografiyalar, darsliklar va o‘quv qo‘llanmalarni tayyorlash, maxsus lug‘atlarni tuzishda, kognitologiya, lingvokulturologiya bo‘yicha ma‘ruzalarni tayyorlashda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.

“Olamning lisoniy manzarasida “yaxshilik” va “yomonlik” konsepti masalasi” mavzusida olib borilgan tadqiqot asosida:

dissertatsiyaning muloqotda yaxshilik va yomonlikning aks etish xususiyatlari: murakkab jumladan, parallelizmdan, ritorik savollardan, yuridik diskursda shaxssiz va shaxsi noma‘lum konstruksiyalardan foydalanish; “yaxshilik” va “yomonlik” falsafiy tushunchalarining leksikografik tavsifi aniqlanishi orqali “yaxshi” va “yomon” tushunchalarining kesishish maydoni ilmiy-kognitiv asoslanib, konseptual qarama-qarshilik semantikasi asosida “yaxshilik – yomonlik” konseptual oppozitsiyasining yadrosi va yadro zonasi, uning o‘zbek va nemis millati vakillari ongida namoyon bo‘lish usullari misollar tahlillari “yaxshi” va “yomon” tushunchalarni almashtirishdan foydalanish xususiyatlariga doir xulosa va natijalaridan Andijon davlat universitetida bajarilgan “PZ-20170926286 raqamli O‘zbek sud amaliy lingvistikasi tadqiqi” davlat amaliy-tadqiqot dasturlari doirasidagi loyihada foydalanilgan (Andijon davlat universitetining 2023-yil 14-dekabrda №39-01-2733-son ma‘lumotnomasi). Natijada tilning muayyan aktida qo‘llaniluvchi ayrim birliklarining o‘ziga xosliklari ochib berilgan.

Dissertatsiyasining “yaxshilik” va “yomonlik” konseptlari o‘rtasidagi semantik munosabatlar tizimli o‘rganilib, ularning markaziy va muhim o‘lchovlari qiyoslanishi, misollar tahlili orqali “yaxshilik-yomonlik”ning konseptual spektri turli mentalitetda o‘ziga xos namoyon bo‘lishini ajratishga doir xulosa va natijalaridan Andijon davlat universitetida 2022-2023-yillarda bajarilgan “№ IL-402104213. O‘zbek tilida elektron lingvistik ensiklopedik lug‘at ishlab chiqish” davlat innovatsion-tadqiqot dasturlari doirasidagi loyihada ixtisoslashgan atamalar tavsifida foydalanilgan (Andijon davlat universitetining 2023-yil

14-dekabrda №39-01-2731-son ma'lumotnomasi). Natijada xususiy diskurs tavsifida qo'llaniluvchi ayrim birliklarining oziga xosliklari ochib berilgan.

Tadqiqotning “yaxshilik” va “yomonlik” falsafiy tushunchalarining leksikografik tavsifi aniqlanishi orqali “yaxshi” va “yomon” tushunchalarining kesishish maydoni ilmiy asoslash hamda konseptual qarama-qarshilik semantikasi asosida “yaxshilik – yomonlik” konseptual oppozitsiyasining yadrosi va yadro zonasi aniqlanib, uning o'zbek va nemis millati vakillari ongida namoyon bo'lish usullariga doir natijalari va materiallaridan O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “O'zbekiston” teleradiokanali DUK “Madaniy-ma'rifiy va badiiy eshittirishlar” muharririyati tomonidan tayyorlangan “Ta'lim va taraqqiyot”, “Millat va ma'naviyat”, “Adabiy jarayon”, “Jahon adabiyoti” nomli eshittirishlarida (2023-yil noyabr va dekabr oylari) foydalanilgan (O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining 2023-yil 25-dekabrda 04-36-1964-son ma'lumotnomasi). Natijada, eshittirishlarning ilmiy saviyasi ortgan, radiotinglovchilar “yaxshilik” va “yomonlik” konseptining o'zbek millatida shakllanishi, qo'llanishi va ahamiyati lingvokulturologik va pragmatik yondashuv asosida aniqlash, “yaxshilik” va “yomonlik” konseptining nemis millatida shakllanishi, qo'llanishi va ahamiyati lingvokulturologik va pragmatik yondashuv asosida aniqlash kabi o'ziga xos jihatlari haqida ma'lumotlarga ega bo'lganlar.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta, jumladan 2 ta xalqaro, 2 ta respublika anjumanida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 12 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 3 ta ilmiy maqola, ulardan 2 tasi respublika hamda 1 ta xorijiy jurnallarda chop qilingan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovadan iborat. Hajmi 153 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning “**Kirish**” qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslanib, tadqiqotning maqsad-vazifalari, predmeti va obykti aniqlangan. Tadqiqotning O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilib, uning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon etilgan. Olingan natijalarning ishonchliligi asoslanib, ishning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan. Tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, aprobatsiyasi ko'rsatilgan.

Dissertatsiyaning “**Kognitiv tilshunoslikda konsept kategoriyasi**” deb nomlanuvchi I bobida tilshunoslikda konsept hodisasi, uning o'rganilish masalasi, milliy xususiyatlari hamda konsept va noverbal fikrlash muammosi kabi masalalar o'rganilgan hamda ushbu masalalarga munosabat bildirilgan. Bobning “Tilshunoslikda konsept hodisasi va uning o'rganilish masalasi” deb ataluvchi birinchi bo'limida “konsept”, “tushuncha” va “ma'no” terminlarining mohiyati, farqlari hamda lingvistik konseptning o'rganilish masalasi batafsil tahlil etilgan.

Konseptning mohiyatini tavsiflash muammosi zamonaviy tilshunoslik sohalari uchun dolzarb bo‘lib qolmoqda. Konsept tizimi insonning voqelikni tushunishini aks ettiruvchi dunyo manzarasini shakllantiradi. Inson obyekt va narsalar dunyosida emas, balki uning intellektual, ma’naviy va ijtimoiy ehtiyojlari uchun yaratgan konsept dunyosida yashaydi. Kognitiv tilshunoslik deb ataladigan ilmiy bilimlarning nisbatan yangi sohasi tushunchalarning muammoli masalasini va atrofda dunyoning lingvistik muhitini o‘rganish bilan shug‘ullanadi. Uning tushunchalaridan biri bu aqliy dunyo hodisalarini, odamlarning jamoaviy qarashlarini va atrofda voqelikka individual yondashuvlarni o‘rganadigan konseptosferadir.

“Konsept”, “tushuncha” va “ma’no” kabi terminlar ko‘p hollarda ko‘pincha bir-birining o‘rnida ishlatiladi.

“Tushuncha” so‘zi lotin tilidagi “conceptus”ni bildiradi. Olimlarning “konsept” terminiga qarashlari har xil bo‘lib, bergan ta’riflari ham turlichadir.

Kognitiv psixologiya konseptni tushunchadan ajratib ko‘rsatdi, shuning uchun hozirgi vaqtda bu terminlar juda aniq ajratilgan.

Bizningcha, “konsept” va “tushuncha” turli fanlarga xos terminlardir. “Tushuncha” atamasi mantiq va falsafada qo‘llansa, “konsept” matematik mantiq va kulturologiyaning termini sifatida belgilanadi. Shuningdek, konsept zamonaviy kognitiv tilshunoslikning asosiy hodisalaridan biridir. Hozirgi vaqtda “konsept” atamasi ko‘plab gumanitar fanlarda keng qo‘llanadi.

Konsept tushunchasi zamonaviy tilshunoslikda ahamiyatli hodisa bo‘lib, keng qamrovli tadqiqotlar mavzusiga aylandi. Biroq, u hali ham aniq talqinga ega emas. Rossiya, Qozog‘iston va Qirg‘iziston olimlari N.N.Boldirev, V.A.Maslova, Y.S.Kubryakova, V.N.Teliya, R.M.Frumkina, S.G.Vorkachev, V.I.Karasik, V.V.Kolesov, M.V.Pimenova, Z.D.Popova, I.A.Sternin, A.P.Babushkina, Y.E.Proxorova, Z.K.Derbisheva, U.D.Kambaraliyeva, E.D.Suleymenova, A.E.Agmanova, Z.K.Temirgazina, Sh.K.Jarkinbekova, J.A.Jambayeva, A.S.Bazarbayevalarning ilmiy ishlari shu masala tahliliga bag‘ishlangan.

“Konsept” tushunchasidan foydalanish kognitiv fan sohasida juda dolzarbdir, chunki u haqiqiy yoki ideal dunyo haqidagi g‘oyalarni tushunish va taqdim etishdagi bo‘shliqni to‘ldiradigan eng muhim bo‘g‘in bo‘lib xizmat qiladi. Konsept ma’lum madaniy kontekstlarda bilim tuzilmalarini tahlil qilishga imkon beradi. Qozoq tilshunosi Sh.K.Jarkinbekova ilmiy nutqda “konsept” atamasidan foydalanish ushbu atama atrofida noaniqlikni aniqlashga yordam beradi²⁹, deb yozadi.

O‘zbek tilshunosligida ham “konsept” tushunchasi, uning ta’rifi, kognitiv, pragmatik va lingvokulturologik xususiyatlari atroflicha tadqiq etilgan. Jumladan, D.U.Ashurova, A.A.Abdualazizov, Sh.S.Safarov, N.Nurmonov, N.Mahmudov, M.R.Galiyeva, A.E.Mamatov, M.N.Xolbekov, M.I.Rasulova, O‘.Q.Yusupov, A.A.Qambarov, S.R.Akbarova, Q.N.Nazarov, M.M.Rahmatova, N.R.Umarova, B.R.Mengliyev, Z.T.Xolmonova, D.Xudayberganova, D.Baxronova³⁰ kabi olimlar ilmiy ishlari shu masalaga bag‘ishlangan.

²⁹ Жаркынбекова Ш.К. Языковая концептуализация цвета в культуре и языках: автореф. дис...д-ра филол. наук. – Алматы, 2004. – С.11.

³⁰ Абдуазизов А. Тилшунослигимиз истикболлари // Филология масалалари – Тошкент, 2011. №3. – Б. 22–25.; Ашурова Д.У. Связь вузовских курсов с современными направлениями лингвистики// Филологиянинг

Xulosa qilib aytganda, konsept dunyoning lingvistik rasmini tavsiflashda asosiy lingvokognitiv kategoriya bo‘lib xizmat qiladi. Bu so‘zlarning dunyoning lingvistik manzarasiga kirishiga va u bilan boshqa leksik birliklar bilan o‘zaro aloqada bo‘lishiga imkon beradi. Konsept va ularning lingvistik qobiliyatlarini o‘rganish mentalitetni dunyo haqida fikrlash usuli sifatida chuqur tushunishga yordam beradi.

Bobning ikkinchi fasli “Zamonaviy lingvokulturologiyada konsept va uning milliy xususiyatlari” deb nomlanadi. Lingvokulturologiya – bu til va madaniyat, til va millat, til va milliy mentalitet o‘rtasidagi munosabatlarni o‘rganish va tavsiflashga qaratilgan soha. V.Telia³¹ va V.Maslovaning³² fikriga ko‘ra, u E.Benvenist³³ bashorat qilganidek, til, madaniyat va inson shaxsiyati triadasi asosida yaratilgan. Lingvokulturologiya tilni prizma sifatida ko‘rib chiqadi, bu orqali tadqiqotchilar etnik guruhning moddiy va ma’naviy o‘ziga xosligini tushunishlari mumkin. Zamonaviy tilshunoslikning asosi lingvistik o‘ziga xoslik va konsept kabi g‘oyalarga asoslanadi va bu tushunchalarning davom etayotgan evolyutsiyasi ushbu sohaning epistemologik rivojlanishini tashkil qiladi.

Millatning kognitiv, hissiy va xulq-atvor stereotiplarini qamrab oladigan konsept mentalitet bilan chambarchas bog‘liq. Mentalitet va tafakkur, xususan, keng ma’nodagi tushuncha va tor ma’nodagi konsept o‘rtasidagi farq aniq belgilanmagan. Asosiy til bilim stereotiplari va psixologiyaga tayanadi. Bu tilda so‘zlarning ma’nolarini tashkil etuvchi asosiy taxmin va e’tiqodlarning izchil to‘plamidan foydalanadi (leksik semantika). Ushbu stereotip va umumiy qabul qilingan taxminlarning keng qo‘llanilishi asosiy tilni boshqa tillardan ajratib turadigan asosiy xususiyatdir.

Konsept lingvokulturologiyaning asosiy elementi bo‘lib, u orqali madaniy meros odamlarning ongida o‘rganiladigan mental birlik bo‘lib xizmat qiladi. Muayyan etnik guruh konseptlarini o‘rganish uning madaniyati va mentalitetini yaxshiroq tushunish va qadrlash imkonini beradi. Lingvokulturologiya sohasida bunday tadqiqotlarni o‘tkazish qiziqarli va muhim natijalarga olib keladi.

Konsept inson tafakkuri va hissiyotini shakllantirishning asosiy birligidir. Kognitiv tilshunoslikning asosiy yo‘nalishi konseptual tuzilmalarning turli xil milliy va madaniy sharoitlarda qanday farq qilishini tahlil qilishdir. Konseptual xususiyatlarni nazariy o‘rganish dunyoqarash, qadriyat va ijtimoiy voqelikni chuqur anglash imkonini beradi.

долзарб масалалари. Маъруза тезислари. – Тошкент, 2008; Сафаров Ш. Семантика. – Тошкент: ЎзМЭ давлат илм. нашр., 2013 – 347 б.; Маматов А.Э. Тилга когнитив ёндашувнинг моҳияти нимада? // Тилшуносликнинг долзарб масалалари: Проф. А.Нурмонов таваллудининг 70 йиллигига бағишлаб ўтказилган илмий-амалий анжуман материаллари. – Андижон, 2012. – Б.212–219.; Махмудов Н. Тилнинг мукаммал тадқиқи йўллари ни излаб...// Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2012. № 5. – Б. 3–16; Юсупов Ў.Қ. Маъно, тушунча, концепт ва лингвокультура атамалари хусусида//Стилистика тилшуносликнинг замонавий йўналишларида. – Тошкент, 2011. – Б.49–55.; Худайберганава Д.С. Ўзбек тилидаги бадиий матнларнинг антропоцентрик талқини: Филол. фан. д-ри...дисс. автореф. – Тошкент, 2015. – Б.102.; Менглиев Б.Р., Холманова З.Т. Тилшунослик назарияси ва методологияси. – Тошкент, 2016. – 145 б.; Умарова Н. Алишер Навоий асарларининг лисоний-концептуал тадқиқи: Филол. фан. д-ри...дисс. – Фарғона, 2021. – 269 б.; Бахронова Д. Оламнинг лисоний манзараси тасвирида концепт ва концептосфера // Хорижий филология №3, 2019. – Б. 62–68.

³¹ Телия В.Н. Русская фразеология. Семантический прагматический и лингвокультурологический аспекты. – Москва, 1996. – С. 94-97.

³² Маслова В.А. Лингвокультурология. – Москва, 2001. – С. 28.

³³ Бенвенист Э. Общая лингвистика. – Москва, 1974. – 407 с. – С. 45.

Konsept umumiy tajriba va madaniy jihatdan o'ziga xos birlashmalarga asoslangan tuzilma hisoblanadi. Taqqoslashlar tajriba va atrof-muhitga qarab har bir mamlakatda farq qiladi.

Konseptual tizimlarning milliy o'ziga xos xususiyatlari, shuningdek, tilning murakkabligi va so'z boyligining mavjudligi kabi turli xil sotsiolingvistik belgilar bilan shartlangan. Jamiyatdagi yuqori lingvistik xilma-xillik turli xil prototiplardan foydalangan holda yanada nozik aqliy tushunchalarni shakllantirishga hissa qo'shishi mumkin.

Konseptlarning milliy o'ziga xosligi turli xil milliy madaniyatlarda bir xil nomdagi konseptlarda farqlar mavjudligida, shuningdek, faqat bitta madaniyatga xos bo'lgan endemik (mahalliy), noyob tushunchalar mavjudligida namoyon bo'ladi.

Konseptlarning milliy xususiyatlariga quyidagilarni keltirish mumkin: 1. Madaniy qadriyatlar. 2. Diniy tushunchalar. 3. Tarixiy xotira. 4. Tillarda nutq madaniyati va tarixiy tajribasiga xos bo'lgan konseptual tuzilmalar va fikrlash shakllarini yetkazadigan so'z va iboralar mavjud. 5. Ijtimoiy me'yor va urf-odatlar.

Bobning uchinchi fasli "Konsept va noverbal fikrlash muammosi" deb nomlanadi. Fikrlashni ikkita asosiy turga bo'lish mumkin. Bular noverbal va verbal fikrlashdir. Noverbal fikrlash, xususan, vizual fikrlash, aqliy tasavvur va obyektlarning tasvirlariga tayanadi. Boshqa tomondan, verbal fikrlash mavhum belgi tuzilmalari bilan ishlaydi. Odamlarning aqliy mehnati haqida gap ketganda, ular turli xil imtiyozlarga ega ekanligi aniqlandi. Ba'zi odamlar vizual yoki xayoliy stimullarni talab qiladi. Masalan, ko'rilgan yoki tasavvur qilingan narsalar, boshqalari esa mavhum belgi va tushunchalar bilan ishlashni afzal ko'rishadi³⁴.

Olimlarning ta'kidlashicha ham, fikrlashni aqlning turli shakllari bilan bog'liq bo'lgan verbal va noverbal turlarga bo'lish mumkin. Verbal intellekt (aql-idrok) so'z yordamida bilimlarni tizimlashtirish va tahlil qilish ko'nikmasini hamda o'qish, yozish va og'zaki muloqot qobiliyatlarini o'z ichiga oladi. Bu verbal va mantiqiy fikrlash bilan bog'liq. Boshqa tomondan, noverbal intellekt obyekt va vizual tasvirlarni manipulyatsiya qilishni o'z ichiga oladi³⁵.

Konsept va noverbal fikrlash sohasidagi tadqiqotlar atrof-dagi dunyoni qanday qabul qilish va tartibga solishni, shuningdek, boshqa odamlar bilan qanday munosabatda bo'lishni yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Ushbu mavzular kognitiv jarayonlarni anglash va inson aqlini rivojlantirish uchun muhimdir.

Noverbal fikrlash og'zaki yoki o'g'zaki ifoda ishlatmasdan ma'lumotni o'ylash va tushunish qobiliyati ekan, bu imo-ishora, yuz ifodalari, ovozli intonatsiya va boshqa noverbal iboralar kabi noverbal signallarni idrok etish, qayta ishlash va talqin qilishni o'z ichiga oladi.

Noverbal fikrlash tushunchasi psixologiya va kognitiv fanlar sohasida chuqur ildizlarga ega. U odamning noverbal signallar orqali ma'lumotni tushunish va uzatish qobiliyatini o'rganadi. Noverbal fikrlash muloqotda muhim rol o'ynaydi, chunki u har doim ham so'z bilan ifodalab bo'lmaydigan his-tuyg'ularni, niyatlarni va boshqa murakkab tushunchalarni yetkazishga imkon beradi.

³⁴https://studbooks.net/903136/psihologiya/ponyatie_osobennosti_neverbalnogo_myshleniya_detey_patologii_rechi_detey_obschim_nedorazvitiem_rechi (дата обращения: 12.12.2024)

³⁵ deerpcloud.ru/articles/chto-takoe-neverbalnoe-myshlenie (дата обращения: 12.11.2024)

Konsept o'g'zaki nutq yoki yozma muloqot shaklida bo'lishi mumkin. Konsept qurilish bloklari sifatida harakat qiladi, fikrlash jarayonida murakkab konseptual asoslarni shakllantiradi. Shuni ta'kidlash kerakki, konsept tabiiy tilda to'g'ridan to'g'ri o'xshashliklarga ega bo'lishi yoki bo'lmasligi mumkin. Shaxs individual konseptlarni to'plamlarga yoki murakkab konseptual asoslarga birlashtirganda, aniq lingvistik analoglarni topish ehtimoli kamayadi. Bunday hollarda, ushbu konseptual ifodalarni og'zaki bayon qilish ko'pincha mo'ljallangan ma'noni eng aniq va har tomonlama yetkazish uchun ibora, batafsil tavsif yoki hatto butun matnlardan foydalanishni talab qiladi. Shunday qilib, ma'ruzachining alohida konseptlardan iborat shaxsiy ma'nosini verbal so'zlash shakli farq qilishi mumkin va suhbatdoshga bu ma'noni yetkazish samaradorligi ham boshqacha bo'lishi mumkin.

Bundan tashqari, bir xil konseptlar insonning fikrlashiga turli yo'llar bilan ta'sir qilishi, turli jihat va qatlamlarni faollashtirishi mumkin. Konseptning ushbu jihatlari yoki qatlamlari shaxsning ona tilida lingvistik belgilarga ega bo'lishi shart emas.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Yaxshilik” va “yomonlik” konseptining oppozitsiyasini o'rganishning nazariy asoslari**” deb nomlanib, unda falsafiy tushunchalarning leksikografik tavsifi, “yaxshi” va “yomon” tushunchalarining kesishish maydoni, “yaxshilik – yomonlik” konseptual oppozitsiyasining yadrosi va yadro zonasi kabi masalalar muhokama etilgan. Bobning birinchi bo'limi **“Falsafiy tushunchalarning leksikografik tavsifi”** deb nomlanadi. Falsafiy tushuncha olamni tushuntirishga va undagi insonlar o'rnini aniqlashga qaratilgan falsafiy g'oya va konseptlarning keng qamrovli tizimini anglatadi. U ontologiya va epistemologiyadan tortib axloq hamda ijtimoiy falsafaga qadar falsafiyning turli sohalarini qamrab oladi. Falsafiy tushunchaning rivojlanishi diniy e'tiqod, ilmiy kashfiyot, shaxsiy tajriba va istaklar ta'sir qilishi mumkin bo'lgan atrofdagi dunyoni individual idrok etish hamda tushunishdan boshlanadi. Inson o'z fikrlarini shakllantirib, izchil e'tiqod tizimini qurar ekan, bu unga inson mavjudligi va uning atrofdagi koinot bilan aloqasi haqida tasavvurga ega bo'lish imkonini beradi.

Falsafiy tushunchalarning leksikografik tavsifi – bu tushunchalarning leksik va semantik jihatlarda tavsifidir. U falsafiy atamalarni, ularning ma'nolari va o'zaro bog'liqligini aniqlash hamda tushuntirishni o'z ichiga oladi. Falsafiy tushunchalarning leksikografik xususiyatlariga tarixiy kontekst, etimologiya, sinonim, antonim kirishi mumkin. Bu falsafiy tushuncha va ularning falsafadagi o'rnini haqidagi konseptlarni aniqlashtirish va kengaytirishga yordam beradi.

Olimlarning falsafiy tushunchalarning leksikografik xususiyatlari haqidagi fikrlari ularning yondashuvlari va tadqiqot qiziqishlariga qarab farq qiladi³⁶. Bu mavzu bo'yicha olimlarning bir nechta nuqtai nazarlari mavjud. Quyida ularni keltirib o'tamiz:

1. Ba'zi olimlarning fikricha, falsafani tushunishda falsafiy tushunchalarning leksikografik xususiyatlari muhim rol o'ynaydi. Ular falsafiy atamalarning aniq ta'rif va izohi falsafiy g'oyalarni rivojlantirish va takomillashtirishga yordam beradi, deb hisoblashadi.

2. Boshqa olimlarning ta'kidlashicha, falsafiy tushunchalarni leksikografik tavsiflash ularning mavhumligi va noaniqligi tufayli qiyin vazifa bo'lishi mumkin.

³⁶ Саенко А.В. Философские понятия и тексты в аспекте их типологизации: Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. – Нижний Новгород, 2022. – 24 с.

Ular tushunchalarni belgilashda kontekst va tarixiy evolyutsiyani hisobga olish zarurligiga ishora qiladilar.

3. Falsafiy tushunchalarning leksikografik xususiyatlariga ma'lum bir tanqid bilan qaraydigan tadqiqotchilar ham mavjud. Ularning ta'kidlashicha, falsafadagi tushunchalar ko'pincha dinamik va sub'ektiv bo'lishi mumkin.

Falsafiy tushunchalarning leksikografik tavsifi bir nechta asosiy xususiyatlarga ega:

1. Aniqlik. Ta'riflarning maqsadi falsafiy atamalarning aniq ta'riflarini berish. Chunki tushunchaning mohiyatini anglash va uni ishonchli taqdim etish uchun aniqlik juda muhimdir.

2. Qisqalik. Leksikografik tavsiflar odatda ixcham bo'lib, tushunchaning asosiy jihatlarini ixcham va maqsadli shaklda taqdim etadi.

3. Kontekstualizatsiya. Tavsiflarda ko'pincha tushuncha haqida tarixiy va kontekstual ma'lumotlar, shu jumladan, uning kelib chiqishi, rivojlanishi va u bilan bog'liq mutafakkirlar haqida ma'lumot mavjud bo'ladi. Bu o'quvchilarga konseptni falsafiy fikrning kengroq doirasida tushunishga yordam beradi.

4. Keng qamrov. Leksikografik tavsif tushunchaning asosiy jihat va o'lchamlarini, shu jumladan, uning turli xil talqinlari, qo'llanilishi va oqibatlarini qamrab olishga intiladi. Ular atama haqida har tomonlama tushuncha berishni maqsad qilib, u bilan bog'liq turli xil qarash va munozaralarni ilgari suradi.

5. Tushunarlilik. Tavsiflar shunday yoziladiki, ular keng kitobxonlar, shu jumladan, falsafa sohasida keng bilimga ega bo'lmaganlar uchun ochiq bo'ladi. Ular haddan tashqari murakkab terminologiyadan qochishadi, tushunchalarni yanada qulay va tushunarli tavsiflashadi.

6. Obyektivlik. Leksikografik tavsiflar tushunchalarni obyektiv va xolis tarzda, shaxsiy tarafkashlik yoki sub'ektiv talqinlarsiz taqdim etishga qaratiladi. Ular tushunchani falsafa sohasida tushunilganidek aniq aks ettirishga intilishadi. Leksikografik tavsif tushunchaning turli nuqtai nazar va talqinlarini taqdim etish orqali obyektivlikni saqlashga intilishi kerak. Ular tushunchani anglash va rivojlantirishga hissa qo'shgan mashhur faylasuf yoki falsafiy maktablarga havolalarni o'z ichiga olishi mumkin.

7. Tizimlilik. Tavsiflar ko'pincha tizimli ravishda tashkil etilishi, tushunchalarni mantiqiy tarzda taqdim etish muhim. U ma'lum bir tartib yoki toifaga rioya qilishi mumkin, bu esa o'quvchilarga turli falsafiy tushunchalar o'rtasidagi munosabatlarni boshqarish va tushunishga yordam beradi.

8. Illyustratsiyalar. Tushunishni yaxshilash uchun tavsiflar tushunchaning qo'llanilishi yoki ta'sirini aks ettiruvchi misollarni o'z ichiga olishi mumkin. Ushbu misollar o'quvchilarga tushunchaning amaliy yoki nazariy jihatlarini anglashga hamda uni yanada tushunarli qilishga yordam beradi.

9. Qayta ko'rib chiqish va yangilash. Leksikografik tavsiflar falsafa sohasidagi yangi ishlanma, talqin yoki munozaralarni aks ettirish uchun qayta ko'rib chiqilishi va yangilanishi kerak.

Bobning ikkinchi fasli **“Yaxshi” va “yomon” tushunchalarining kesishish maydoni** deb nomlanadi. “Yaxshi” va “yomon” tushunchalarining kesishishini o'rganish axloqiy falsafaning mavzusidir. Ushbu mavzuni o'rganishga ko'plab olim, faylasuf va mutafakkirlar o'z hissalarini qo'shdilar.

“Yaxshilik” va “yomonlik” tushunchalarining taqqoslash jadvali

Xususiyatlari	Yaxshilik	Yomonlik
Ta’rifi	Insonlarning farovonligi va baxtiga hissa qo‘shadigan ijobiy harakat, qadriyat va axloqiy tamoyillar.	Odamlarga zarar va azob-uqubatlarni keltirib chiqaradigan salbiy harakat, qadriyat va axloqiy tamoyillar.
Etika (axloq-odob) dagi roli	“Yaxshilik” odamlarga adolatli va baxtli yashashga yordam beradigan axloqiy me’yor va qadriyatlarning asosidir.	“Yomonlik” yaxshilikka qarama-qarshi bo‘lib, axloqiy me’yorlar va qadriyatlarning buzilishini anglatadi
Xususiyatlari	“Yaxshilik” fidoyilik, rahm-shafqat, adolat va olijanoblik kabi xususiyatlarga ega.	“Yomonlik” xudbinlik, shafqatsizlik, adolatsizlik va pastkashlik xususiyatlari bilan ajralib turadi.
Nisbiyligi	“Yaxshilik” nisbiy bo‘lishi mumkin va madaniy, ijtimoiy va individual omillarga bog‘liq bo‘ladi.	“Yomonlik” ham nisbiy bo‘lishi mumkin va kontekst hamda nuqtai nazarga qarab o‘zgaradi.
Kundalik hayotda	“Yaxshilik” ezgu ishlarda, boshqalarga yordam berishda, o‘zgalarni hurmat qilishda va axloqiy me’yorlarga rioya qilishda namoyon bo‘ladi.	“Yomonlik” shafqatsizlik, zo‘ravonlik, aldash, jinoyat va axloqiy tamoyillarni buzishda namoyon bo‘ladi.

“Yaxshilik” va “yomonlik” tushunchalarining kesishish maydoni bir vaqtning o‘zida ham yaxshilik, ham yomonlik bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin bo‘lgan element va harakatlar mavjud bo‘lgan sohadir. Bu tushunchalar orasidagi chegaralar “xiralashgan” (bir-biri bilan qo‘shilib ketgan) va murakkab axloqiy muammolar paydo bo‘ladigan joy.

Masalan, kesishish makonining bir misoli, inson bir guruh odamlarga foyda keltiradigan, lekin ayni paytda boshqa guruhga zarar yetkazadigan harakatni amalga oshiradigan vaziyat bo‘lishi mumkin. Bunday holda, biz qaysi tomonga qarayotganimizga qarab, bu harakatni ham yaxshi, ham yomon deb hisoblash mumkin.

Shuningdek, kesishish maydoni yaxshilik yoki yomonlik haqida aniq javob bo‘lmaganda axloqiy dilemmalarni o‘z ichiga olishi mumkin. Masalan, evtanaziya (*yunoncha. Inson yoki boshqa tirik mavjudotning davolab bo‘lmaydigan kasallikdan aziyat chekishi va bu kasallik natijasida chidab bo‘lmas azob-uqubatlarni boshdan kechirish amaliyoti*), o‘zini himoya qilish maqsadida zo‘ravonlikdan foydalanish masalalari.

Umuman olganda, “yaxshilik” va “yomonlik” tushunchalarining kesishish maydoni axloqiy va ijtimoiy-madaniy omillar, bizning harakatlar va hodisalarni idrok etishimiz va baholashimizga ta’sir qilishi mumkin bo‘lgan murakkab va ko‘p qirrali sohadir.

Bobning uchinchi fasli “Yaxshilik” – “yomonlik” konseptual oppozitsiyasining yadrosi va yadro zonasi” deb nomlanadi. Tushunchalar nazariyasi va tavsifida konseptlarning mazmuni va tuzilishini farqlash muhimdir. Konseptning tuzilishi turli xil tabiatning har xil kognitiv tarkibiy qismlarini, shu jumladan, hissiy tasvirlarni, axborot va talqin maydonlarini o‘z ichiga oladi. Shuningdek, ushbu komponentlarning har biriga tegishli bo‘lgan kognitiv xususiyatlarni sanab o‘tish orqali tavsiflanadi. Boshqa tomondan, konseptning mazmuni konsepsiyalashgan obyekt yoki hodisaning individual xususiyatlarini aks ettiruvchi kognitiv xususiyatlar bilan shakllanadi va ushbu funksiyalar to‘plami sifatida tavsiflanadi.

Konseptning mazmuni yadro, yaqin, uzoq va ekstremal periferiyani o‘z ichiga olgan maydon prinsipi asosida tashkil etiladi. Muayyan tarkib zonasining maqsadi, birinchi navbatda, konsept tashuvchisi ongida obyektning muhimligi hamda yorqinligi bilan belgilanadi. Konseptlarning tavsiflari odatda yadro atrofida joylashgan so‘zlar xususiyatlariga amal qiladi, bu xususiyatning yorqinligi yadrodan uzoqlashganda kamayadi.


Konseptning yadrosi markaziy va prototipik tarkibiy qismlardan iborat deb taxmin qilinadi va ma’lum bir obyekt g‘oyasi tasvirlarni ham o‘z ichiga oladi. konseptual va majoziy ma’lumotlar yadroga tegishli bo‘lsa, boshqa tushunchalarni bog‘laydigan noaniq komponentlar periferiyaga tegishli. Masalan, *erkinlik, iroda, madaniyat, din va siyosiy tuzilish* kabi mavhum tushunchalar turli madaniyatlarda farq qilishi yoki hatto bir-biriga zid bo‘lishi mumkin, bu esa kelishmovchiliklarga olib keladi. Bunday hollarda muvaffaqiyatli muloqot ushbu abstraksiyalarni umumiy tushunishga tayanadi, birinchi navbatda, universal semantik tarkibiy qismlarga e’tibor qaratadi.

Konseptual oppozitsiyada yadro va yadro zonasi muhim rol o‘ynaydi. konseptning yadrosi uning asosiy va eng muhim tarkibiy qismlarini o‘z ichiga olgan markaziy hamda o‘zgarimas mohiyatini ifodalaydi. Odatda konsept umumiy qabul qilingan va universal g‘oyalar bilan bog‘liq bo‘ladi. Boshqa tomondan, yadro zonasi kontekstga, madaniy xususiyatlarga va individual afzalliklarga qarab farq qilishi mumkin bo‘lgan qo‘shimcha komponentlarni o‘z ichiga oladi. Bu konseptning yanada moslashuvchan va o‘zgaruvchan qismini ifodalaydi, uni o‘zgartirish va talqin qilish mumkin. Shunday qilib, yadro va yadro zonasi birgalikda konseptning to‘liq manzarasini shakllantiradi, uning barqaror va umumiy qabul qilingan jihatlarini yanada moslashuvchan hamda kontekstli elementlar bilan birlashtiradi.

“Yaxshilik” va “yomonlik” mavhum tushunchalar bo‘lib, ularni til ishtirokisiz idrok etish mumkin emas, chunki ularning natijasi har doim bu tushunchalarni obyektivlashtirishga imkon beradigan mavhum ot. Ba’zi olimlar axloqiy konseptlarni tushunish prinsipial jihatdan imkonsiz deb hisoblashadi, chunki yaxshilik va yomonlik g‘oyalari individual ongning ichki his, sezgisi bo‘lib, oqilona fikrlashdan yiroqdir. Biroq tilning tabiati bu sotsializatsiyaning (umumlashtirish) eng kuchli vositasi bo‘lib, u birinchi navbatda, shaxsiy emas, balki ijtimoiy, etnik-madaniy va universal narsalarni aks ettiradi. Shuning uchun bu lingvistik ma’lumotlarni tahlil qilish axloqiy konseptlarning mohiyatini tushunishga yordam beradi.


Umumlashtirib aytish mumkinki, “yaxshilik” konsepti konseptual maydoni yadrosini “yaxshilik” tashkil etadi. Yaxshilik tushunchasining yadro doirasida leksik

darajalanish birliklari uning sinonimlari sanaladi. Buni quyidagi chizma orqali ko‘rish mumkin:



1-rasm. Yaxshilik tushunchasining leksik darajalanishi

“Yomonlik” tushunchasining asosini esa “yomonlik” leksemasi tashkil etadi. Yomonlik konseptining yadro va periferiyasini tavsiflash uchun “yomonlik”ning sinonimlari va hosilalari ishlatiladi: *yovuzlik, yovuz, g‘azab, jaholat* kabi.



2-rasm. Yomonlik tushunchasini leksik darajalinishi

Yaxshilik va yomonlik konseptlarining oppozitsiyasini o‘rganib, tilshunoslar ularning hamma jihatlari ham bir xil axloqiy tushunchaga ega emasligini tan olishadi. Tahlil ushbu qarama-qarshiliklarning mohiyatini ifodalovchi markaziy yadro yoki yadro zonasini ochib beradi.

III bob “Yaxshilik” va “yomonlik” konseptining turli lingvomadaniyatlardagi talqini” deb nomlanib, unda o‘zbek va nemis tillarida “yaxshilik” va “yomonlik” konseptining lingvokulturologik tahlili hamda pragmatik xususiyatlari misollar asosida tahlil etilgan.

